

ALISHER NAVOIYNING HAYOTI VA IJODI

Maftuna Hasanova

Namangan viloyati Yangi Namangan tumani 63-maktabda

ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ulug' bobakalonimiz Mir Alisher Navoiy haqida uning hayot yo'li badiiy ijodi borasida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Xuroson, Hirot, Xamsa, G'iyosiddin Bahodir, Sayyid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammad, Foni.

Xalqning madaniyati va qadriyatini belgilovchi asosiy voozita bu uning tilidir. Buyuk shoir, jamoat arbobi, o'z ona tilining ta'komillashuviga katta hissa qo'shgan shaxs bu – Alisher Navoiydir. U XV asr II yarmidagi buyuk mutafakkir, she'riyat sultoni bo'lgan. Hazrat Alisher Navoiy (1441-1501) hazratlari tilshunoslik ilmida ulkan iz qoldira olgan.

O'zbek xalqining buyuk farzandi, yirik mutafakkir shoir, olim va davlat arbobi, adabiy tilimizni kamolotga yetkazgan Amir Nizomiddin Alisher binni G'iyosiddin Navoiy hijriy yil hisobi bilan “o'n yettinchi ramazon oyi sana 844-tovuq yili” (milodiy 1441-yil 9-fevral) Xuroson davlatining yirik shahri Hirotning Bog'I Davlatxona mavzeyida xizmatchi oilasida dunyoga keladi. Alisher bolaligidanoq o'zining o'tkir zehni, ziyrakligi, xush xulqi va xushfahmliligi bilan tengdoshlari orasida alohida ajralib turgan. Bo'lg'usi shoir 1445-yildan boshlab maktabga boradi va she'r eshitish, she'r o'qish va yodlashga qiziqadi, she'riyatga mehr qo'yadi.

Alisher saroy muhitida yashaganligi uchun alohida tarbiya va nazoratda o'sdi. Olimu fozillar davrasida bo'ldi. 3-4 yoshlarida davrining mashhur shoiri Qosim Anvarning bir

she'rini yod aytib, mehmonlarni hayratga soldi. 5 yoshida esa uni maktabga berdilar. U bo'lajak sulton Husayn Boyqaro bilan birga o'qidi.

U Hirotida tug'ilib, shu yerda umrining asosiy qismini o'tkazgan. Navoiyning otasi G'iyosiddin Bahodir temuriylar xonadoniga yaqin bo'lgan. She'r zavqi va iste'dodi erta uyg'ongan. Bolalikdayoq Farididdin Attorning „Mantiqut-tayr“ asarini yod olgan, Sharafiddin Ali Yazdiy nazariga tushgan, Mavlono Lutfiy yosh shoir iste'dodiga yuqori baho bergan, Kamol Turbatiy e'tirofini qozongan. Sayyid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammad kabi ustozlardan ta'lim olgan, Abdurahmon Jomiy bilan ijodiy hamkorlikda bo'lgan.

1453-yilda Alisherning otasi G'iyosiddin Muhammad vafot etdi. Alisher Abulqosim Bobur xizmatiga kirdi. Avval Sabzavorda, so'ng Mashhadda yashadi. Ikki maktabdosh do'st – Husayn va Alisher yana birga bo'ldilar. Bu yillar ham yosh Alisher uchun o'qish va ilm egallash yillari bo'ldi. She'rga mehr Alisherni ijodga undadi. U 7 – 8 yoshlarida she'r yoza boshladi. O'zbekch she'rlariga “Navoiy”, forsha she'rlariga “Foniy” taxallusini qo'ydi. 15 yoshlarida she'rlari bilan zamonasining mashhur shoirlari diqqatini tortdi.

1457- yilda Abulqosim Bobur Mirzo vafot etdi. Uning o'rnini Abusaid Mirzo egalladi. Husayn Boyqaro taxt uchun kurashga sho'ng'ib ketdi. Navoiy esa Mashhad madrasalarida o'qishni davom ettirdi. 1464-yilda Hitotga qaytib kelgan shoir hayotida noxushliklar boshlandi. Abusaid Mirzo taxtga da'vogar Husayn Boyqaroning yaqin kishilarini ta'qib ostiga oladi. Alisherning ota mulkini musodira qiladi, tog'alari Kobuliy va G'aribiylarni qatl ettiradi.

Navoiy 60-yillarning ikkinchi yarmida Samarqandda yashadi. Uning bu yerga kelish sababini turlicha ko'rsatadilar. Tarixchi, Navoiy haqidagi “Makorim ul-axloq”-“Yaxshi xulqlar” nomli maxsus asarning muallifi Xondamir uni o'qish uchun keldi, deydi. Zahiriddin Bobur esa Abusaid surgun qildi, deb ma'lumot beradi. Har ikkalasi uchun ham asos bor, albatta.

Buyuk zotlar dunyoga kelishlaridan ilgariyoq ishq dardiga muhtalo bo'lar ekanlar. Bu dunyoga kelgach, ularning amallari, xulqlari, deganlari va bitganlari ishq bilan yo'g'rilar, vafo va sadoqat bilan ziynatlanar ekan. Alisher Navoiy ham shunday buyuklardan biri. To'rt-besh yoshli go'dakning tojik shoiri Qosim Anvor g'azallarini yod aytishi, maktab yoshida Farididdun Attorning "Mantiq ut-tayr" falsafiy dostonini yodlashi, yetti-sakkiz yoshidan g'azallar bitishi, o'n ikki-o'n uch yoshlarida mamlakat bo'ylab shuhrat taratishi, hikmronlar e'tiborini qozonishi Alisher Navoiyning dunyoga buyuk bo'lib kelganligi kafolatidir.

Nima bo'lganda ham, Samarqand uning hayotida o'chmas iz qoldirdi. Chunki Samarqand sohibqiron Amir Temur poytaxt qilgan shahar edi. Go'ri Amir, muazzam Ko'ksaroy, Ulug'bek rasadxonasi kabi o'nlab tarixiy obidalar, jome' masjidlar, madrasalar, qanchadan-qancha olimu fozillar, shaharning tabiiy go'zalligi uning xotirasida saqlanib qoldi. Keyinchalik bu shaharni o'z asarlarida "firdavsmonand" (jannatmisol) deb ta'rif etdi.

Navoiy shu yillari shoir sifatida juda katta shuhrat topa bordi. 1465-1466-yillarda uning muxlislari she'rlarini to'plab, "Devon" tuzdilar. Bu kitob bugun "Ilk devon" nomi bilan mashhurdir. 1469-yilda Hirot taxtiga Husayn Boyqaro chiqdi va Samarqandga xat yo'llab, maktabdosh dosti Alisher Navoiyni o'z yoniga chaqirib oladi. Davlat ishlariga jalb etadi, muhrdor qilib tayinlaydi. Shu tariqa, buyuk shoir Husayn Boyqaro saroyida 1469-1472-yillarda muhrdor, 1472-1476-yillarda vazir bo'lib ishladi. 1487-1488-yillarda Astrobodga hokimlik qildi. Husayn Boyqaro hokimiyat ishlarida Navoiyning aql va sadoqatiga tayanib ish ko'rdi. Uni, qarshiligiga qaramasdan, yuqori martabalarga tayaniladi. Buyuk shoir "amri kabir" (ulug' amir), "amirul muqarrab" (podishohga eng yaqin amir) unvonlariga musharraf bo'ldi. Uning vazirlik yillari hirotida obodonlik ishlari avj olgan, madaniyat gullab yashnagan davr bo'ldi.

Ulug' amir o'zi bosh bo'lib suvsiz yerlarga suv chiqardi, eski ariqlarni tozalattirdi, yangi kanallar qazdirdi. Eski binolarni ta'mir qildirib, yangilarini qurdirdi. Qanchadan-qancha madrasalar, xonaqolar soldirdi. Uning, ayniqsa, Husayn Boyqaro hokimiyatini

mustahkamlash, yurt osoyishtaligini ta'minlash, temuriyzodalar toj-u taxt uchun olib borayotgan kurashlarning oldini olish borasidagi xizmatlari katta bo'ldi. Aql-u zakovati, donishmandligi, el-yurt orasidagi yuksak mavqei bilan Husayn Boyqaro va o'g'illari-shahzodalar o'rtasidagi ko'plab nizo va janjalarni yarashga aylantirib, ota va bolalarning bir-birlariga mehr-muhabbatlarini tiklashga muvaffaq bo'ldi. Qanchadan-qancha g'alayonlarni tinchitdi. U jangda jasur, she'rda iste'dodli, do'stlikda sadoqatli bo'lgan. Sulton Husayn Boyqaroga qattiq ishonar edi. Alisher Navoiy she'rini, shoirlikni hamma narsadan baland tutdi. Vazirlik martabasida turib ham ijod qilishni to'xtatmadi. 1472 – 1476- yillarda “Bado'yeul bidoya” (“Badiiylik ibtidosi”), 1476 – 1483- yillarda “Navodirun nihoya” (“Nihoyasiz nodirliklar”) nomlari bilan ikki devon tuzdi.

1483 – yilda turkiy tilda birinchi bo'lib Nizomiy Gankaviydan keyin hech qaysi shoir yozmagan “Xamsa” yozishga kirishdi va juda qisqa muddat – ikki yilda besh yirik dostonidan iborat “Xamsa” ni yozib tugatdi. Bular “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab'ai sayyor”, “Saddi Iskandariy” dir. Ilm va ijod ahli bu voqeani zo'r shodliklar bilan qarshi oldi. Abdurahmon Jomiy Navoiy “Xamsa” siga yuksak baho berdi. Husayn Boyqaro buyuk shoirni o'zining oq otiga mindirib, unga jilovdorlik qilib, Hirot ko'chalarini aylantirdi.

Alisherning shoh qoshida oshib borayotgan mavqe'- e'tibori saroydagi Majididdin boshliq bir guruh el haqidan xazar qilmaydigan amaldorlarni tashvishga solib qo'ydi. Ular shohning adolatlattalab amirini ko'zdan uzoqroqqa jo'natish yo'lini izlay boshladilar va bunga muvaffaq bo'ladilar. Shoir 1487-1488-yillarda Astrabotga hokim tayinlanib, poytaxtdan uzoqlashtirildi .

1480-1490-yillar Navoiy uchun badiiy ijodda samarali yillar bo'ldi. Shoir “Xamsa”dan keyin bir qator nasriy asarlar yaratdi. 1488-yilda “Tarixi mulki Ajam” asarini yozdi. Shu yillar Navoiyning yaqin do'stlari, ustozlaridan Sayyid Hasan Ardasher(1489), Abdurahmon Jomiy(1492), Pahlavon Muhammad(1493) ketma-ket vafot etdilar. Navoiy ularga bag'ishlab “Holati Sayyid Hasan Ardasher”, Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holati

Pahlavon Muhammad” asarlarini yozadi. Bu asarlar nasriy bo’lib, shoirning ulug’ zamondoshlari haqidagi memuar-xotiralaridan tashkil topgan edi.

1491-yilda shoir muammo janriga bag’ishlangan “Risolai muammo” asarini yozdi. Muammoni tuzish va yechish yo’llarini ko’rsatdi. Navoiy zamonasida muammo, asosan, fors tilida yozillardi. Navoiy o’zbek tilida muammo yozgan ilk o’zbek shoirlaridan bo’ladi. Shoirning 52 o’zbekcha, 500 forscha muammosi bor.

Navoiyning 1490-yillardagi eng katta xizmatlaridan biri “Xazoyin ul-maoniy”ni tuzishi bo’ldi. To’rt devondan iborat bo’lgan bu ulkan sheriylar to’plam shoirning turkiy tilda yozgan deyarli barcha lirik she’rlarini qamrab olgan edi.

Alisher Navoiy 1501-yil 3-yanvarda og’ir betoblikdan so’ng hayotdan ko’z yumdi. Husayn Boyqaro buyrug’iga ko’ra butun mamlakatga motam e’lon qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduroziq Rafiyev, Lobar Rafiyeva. O’zbek tili va adabiyoti. TOSHKENT “NISO POLIGRAF” 2015. 120-bet
2. Алишер Навои. Сборник статей. –Москва-Ленинград: АН, 1946.
3. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик. 2-том. –Тошкент: Фан, 1977
4. Навоий замондошлари хотирасида. Тузувчи: Б.Аҳмедов. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1985.
5. Жўрабоев О. Алишер Навоийнинг тарихий тафаккури // “Ўзбекистон тарихи” журнали. 2015. №1.
6. Жўрабоев О. Навоий ва тарих. (Рисола) -Тошкент: Tamaddun, 2016